

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

№7

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2025
IYUL



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[™]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



UZBEKISTAN

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr,
18 sahifa, iyul, 2025-yil.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi

- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

Yashil ish o'rinlari va ekologik ta'lim: O'zbekiston yoshlari uchun yangi imkoniyatlar 12
Rashidov Saidislom, Zaripova Mardona



YASHIL ISH O'RINLARI VA EKOLOGIK TA'LIM: O'ZBEKISTON YOSHLARI UCHUN YANGI IMKONIYATLAR

Rashidov Saidislom

Ma'mun Universiteti "Iqtisodiyot" kafedrası o'qituvchisi

ORCID: 0009-0007-6135-1372

Zaripova Mardona

Urganch davlat universiteti magistratura talabasi

ORCID: 0009-0004-1099-2127

Annotatsiya: Hozirgi kunda iqtisodiy rivojlanish barqarorligi va yashil iqtisodiyotga o'tish global ahamiyat kasb etmoqda. "Yashil ish o'rinlari" va "ekologik ta'lim" tushunchalari yoshlar uchun yangi iqtisodiy imkoniyatlarni yaratishga xizmat qilmoqda. Mazkur maqolada "yashil ish o'rinlari" va "ekologik ta'lim" tushunchalarining mohiyati, ularning barqaror rivojlanishga va yoshlarga ta'siri hamda O'zbekiston kontekstidagi davlat siyosatlarini tahlil qilinadi. Xususan, BMT Barqaror rivojlanish maqsadlari doirasida o'quv va bandlik masalalari ko'rib chiqilib, O'zbekistonda ekologik yo'nalishli kadrlar tayyorlash hamda yoshlarni yashil iqtisodiyotga jalb qilish bo'yicha tashabbuslar muhokama etilmoqda. Tadqiqot natijalari O'zbekiston yoshlari uchun yashil iqtisodiyot va ekologik madaniyat sohalarida yangi ish o'rinlarini yaratish hamda ekologik ta'limni rivojlantirish zarurligini ko'rsatmoqda.

Kalit so'zlar: yashil iqtisodiyot, yashil ish o'rinlari, ekologik ta'lim, yoshlar, barqaror rivojlanish.

Abstract: In the context of environmental protection and sustainable development, promoting green jobs and ecological education has become crucial. This article explores the concepts of "green jobs" and "ecological education," and their importance for sustainable development and youth. Particular attention is paid to the government's initiatives in Uzbekistan for a green transition, as well as educational programs and international experience aimed at creating employment opportunities for youth in environmentally oriented sectors. Based on the analysis, conclusions are drawn about the importance of advancing green professions and ecological culture among youth, and recommendations are made for integrating environmental education into the education system.

Keywords: green economy, green jobs, ecological education, youth, sustainable development.

Аннотация: В современных условиях охраны окружающей среды и устойчивого развития создание «зелёных рабочих мест» и экологическое образование становятся ключевыми элементами. В статье рассматриваются понятия «зелёные рабочие места» и «экологическое образование», их значение для устойчивого развития и роль в подготовке молодого поколения. Особое внимание уделено инициативам правительства Узбекистана в области перехода к «зелёному» росту, а также образовательным программам и международному опыту, направленным на расширение возможностей занятости молодежи в экологически ориентированных секторах. На основании проведённого анализа делаются выводы о значимости продвижения «зелёных» профессий и экологической культуры среди молодёжи и предлагаются рекомендации по интеграции экологического образования в систему образования.

Ключевые слова: зелёная экономика, зелёные рабочие места, экологическое образование, молодёжь, устойчивое развитие.

KIRISH

Global miqyosda iqtisodiy rivojlanish endilikda atrof-muhitni muhofaza qilish va kam karbonli texnologiyalar rivojiga bog'liq bo'lib qolmoqda. BMT tomonidan 2015-yilda qabul qilingan Barqaror rivojlanish maqsadlari 17 ta maqsad va 169 ta vazifani o'z ichiga oladi, jumladan, sifatli ta'lim hamda munosib ish o'rinlari bo'yicha xalqaro maqsadlar ham ko'rsatilgan. Bunday global kontekstda yoshlar manfaatlariga qaratilgan yashil ikti-



sodiyot va ekologik madaniyatni rivojlantirish masalalari ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. So'nggi yillarda O'zbekistonda ham iqtisodiyotda yashil texnologiyalarni joriy etish va ekologik barqarorlikni ta'minlash bo'yicha keng ko'lamli strategiyalar ishlab chiqilmoqda. Xususan, bio-muhandislik, nano-texnologiya, IT-injeneriya, urbanistika va yashil energetika kabi yangi mutaxassisliklarga o'qitish vazifalari belgilanmoqda. Shu bilan birga, xalqaro hamkorlik va milliy tashabbuslar yoshlarni ekologik bilim hamda malakalar bilan ta'minlashga qaratilmoqda.

Misol uchun, BMT Taraqqiyot Dasturi 2025-yilda e'lon qilingan tashabbus doirasida 1,3 million O'zbekiston yoshini iqlim ta'limi va yetakchilik ko'nikmalari bilan qamrab olishni rejalashtirmoqda. Boshqa tomondan, O'zbekistonda aholining 35 millioni orasida 13 million kishi ish bilan band bo'lsa-da, "yashil ish o'rinlari" bo'yicha alohida statistika hali mavjud emas. Shu munosabat bilan mamlakatda ekologik ta'lim va yashil iqtisodiyot sohalarida yoshlarni qo'llab-quvvatlashga doir integratsiyalashgan siyosat hamda dasturlar zarurligi yuzaga kelmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbek va xorijiy adabiyotlarni tahlil qilgan holda, yashil iqtisodiyot hamda ekologik ta'lim kontseptsiyalariga oid tadqiqotlar ko'rib chiqildi. Xalqaro tajribada Jahon Bandlik Tashkiloti (ILO) tomonidan "yashil ish o'rinlari" atrof-muhitni saqlashga hissa qo'shadigan munosib ishlar sifatida belgilangan. BMT Barqaror rivojlanish maqsadlari esa yoshlar ta'limi va bandligini ham o'z ichiga oladi. Ekologik ta'limga oid maqolalarda bu jarayon yosh avlodda ekologik ong va mas'uliyatni shakllantirishga xizmat qilishi ta'kidlangan (Razzakova, 2025).

O'zbekiston manbalarida, xususan, Ekologiya vazirligi axborotida ekologik ta'lim va yashil iqtisodiyotga o'tish borasidagi hamkorlik ishlari qayd etilgan. Masalan, vazir Aziz Abduhakimovning UNESCO bilan uchrashuvida "yashil iqtisodiyotga bosqichma-bosqich o'tish, ekologik ta'lim va madaniyatni joriy etish" muhimligi ta'kidlangan. Bundan tashqari, respublikada "yashil ish o'rinlari"ni rag'batlantiruvchi tashabbuslar ham vujudga kelmoqda. 2024-yilda SQB banki ekologik tamoyillarga muvofiq yangi kredit mahsulotlarini yo'lga qo'yib, mahalliy biznesda yashil ish o'rinlarini yaratishni qo'llab-quvvatlayotgani e'lon qilingan.

Shu tarzda, adabiyotlar tahlili ko'rsatmoqdaki, yashil ish o'rinlari va ekologik ta'lim o'rtasidagi bog'liqlik xalqaro hamda milliy darajada o'rganilmoqda, biroq O'zbekiston yoshlari kontekstida ularning integratsiya qilinishi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar hanuz kam.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolada komparativ-tahliliy va sistematik analiz usullari qo'llanildi. Tadqiqot davomida avvalo adabiyotlar tahlili o'tkazilib, yashil iqtisodiyot, ekologik ta'lim va yoshlar mavzulariga oid milliy va xalqaro manbalar o'rganildi, mavjud kontseptsiyalar, statistik ma'lumotlar va ilg'or tajribalar taqqoslandi. Shu bilan birga, hujjatlar va siyosatni tahlil qilish jarayonida O'zbekiston hukumati tomonidan qabul qilingan "yashil" iqtisodiyotga o'tish va yoshlar siyosatiga oid hujjatlar, masalan, Prezidentning PF-37 sonli qarori hamda BMT va ILO kabi xalqaro tashkilotlarning yo'riqnomalari chuqur o'rganildi.

Tadqiqotning keyingi bosqichida empirik ma'lumotlarni yig'ish amalga oshirildi. Jumladan, o'rta ta'lim va oliy ta'lim tizimida ekologik yo'nalishli ta'limning joriy etilishi, davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari, shuningdek, BMT Taraqqiyot Dasturi va OAV xabarlarida keltirilgan misollar asosida mavjud vaziyat tahlil qilindi. Ushbu bosqich yoshlar orasida ekologik bilim va ko'nikmalarni shakllantirish darajasini aniqlashga xizmat qildi.

Tizimli tahlil bosqichida esa ekologik ta'lim va yashil ish o'rinlari tahlil obyekti sifatida butun tizim doirasida ko'rib chiqildi. Bu jarayonda ularning yoshlar bandligi, iqtisodiy imkoniyatlar yaratish va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonlari bilan o'zaro aloqasi struktural yondashuv asosida o'rganildi. Natijada, ushbu sohalarining o'zaro ta'sir mexanizmlari, mavjud muammolar va rivojlantirish imkoniyatlari aniqlandi.

Tadqiqot yakunida olingan ma'lumotlar asosida xulosa va amaliy tavsiyalar shakllantirildi. Bu takliflar O'zbekiston sharoitida yashil iqtisodiyot va ekologik ta'lim tizimining tarkibi, xususiyatlari hamda yoshlarni ushbu yo'nalishga jalb etish mexanizmini takomillashtirishga qaratilgan bo'lib, ularning amalga oshirilishi mamlakatda barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda muhim ahamiyat kasb etishi ta'kidlandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston sharoitida yoshlarni ekologik ta'lim va yashil iqtisodiyotga tayyorlash bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, mamlakatda demografik ko'rsatkichlar tobora oshib bormoqda. Bugungi kunda respublika aholisi 35 millionga yetgan bo'lib, ulardan taxminan 13 million kishi ish bilan band hisoblanadi. Shunga qaramay, rasmiy statistikada aynan yashil ish o'rinlari bo'yicha maxsus ma'lumotlar mavjud emasligi sohada aniq ro'yxat va monitoring tizimi shakllanmaganligini ko'rsatadi. Bu esa yashil iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishini belgilash va uning mehnat bozoridagi ulushini aniq baholash imkoniyatlarini cheklaydi.

Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi tomonidan yashil iqtisodiyot sohasida kadrlar tayyorlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi ekologo-texnika yo'nalishidagi mutaxassisliklar sonini oshirish choralari ko'rilmoqda. Masalan, Toshkent davlat texnika universiteti, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti hamda Samarqand arxitektura-qurilish instituti ekologiya va qayta tiklanuvchi energiya yo'nalishidagi o'quv dasturlarini xorijiy hamkorlar bilan takomillashtirishni boshlagan. Bu jarayon yoshlar orasida ushbu yo'nalishlarga bo'lgan qiziqishni oshirish, ilmiy va amaliy tayyorgarlikni mustahkamlash hamda mehnat bozoriga raqobatbardosh mutaxassislar yetkazib berish imkonini yaratadi.

Maktablarda ham ekologik ta'limga katta e'tibor qaratilmoqda. 2025-yil holatiga ko'ra, 10 000 dan ortiq umumta'lim muassasasida 30 000 dan ziyod ekologik-biologik to'garaklar faoliyat ko'rsatmoqda. Ushbu to'garaklarda taxminan 500 000 o'quvchi ekologik bilimlarga ega bo'layotgani, ular suv va elektr resurslaridan oqilona foydalanish, chiqindilarni boshqarish va qayta ishlash, atmosferani muhofaza qilish kabi dolzarb mavzularni o'zlashtirayotganini ko'rsatadi. Bunday klublar nafaqat nazariy bilimlar berishga, balki amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga ham xizmat qilmoqda.

O'zbekiston boshqaruvi va nodavlat tashkilotlari tomonidan ham yoshlar ekologik faolligini oshirishga qaratilgan qator tashabbuslar amalga oshirilmoqda. Vazirliklar va nodavlat sektor UNESCO bilan hamkorlikda iqlim ta'limini o'quv dasturlariga integratsiya qilish, maktab va universitetlarda "yosh yashil elchilar" tarmog'ini tashkil etish kabi loyihalarni yo'lga qo'ygan. Bu esa yoshlarning atrof-muhitga mas'uliyatli munosabatini rivojlantirish, ekologik yetakchilik fazilatlarini shakllantirish va jamiyatdagi yashil innovatsiyalarni ilgari surishiga zamin yaratmoqda.

BMT Taraqqiyot Dasturi tomonidan 2025–2028-yillarga mo'ljallangan yirik loyiha doirasida esa 50 000 nafar o'qituvchini iqlim darslarini o'tkazishga tayyorlash hamda 4000 nafar qishloq yoshini qayta tiklanuvchi energiya va iqlimga moslashtirilgan qishloq xo'jaligi sohasidagi kasbiy o'qishga jalb etish rejalashtirilgan. Ushbu tashabbus natijasida 1,3 million o'quvchining iqlim savodxonligi oshirilishi, 4000 nafar qishloq yoshlarining esa yashil iqtisodiyotga oid amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishi kutilmoqda. Bu esa ularning iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytiradi, daromad manbalarini diversifikatsiya qiladi va iqlim o'zgarishlariga moslashish salohiyatini kuchaytiradi.

Shuningdek, xususiy sektor ham yashil ish o'rinlarini rag'batlantirishda faol ishtirok etmoqda. Masalan, 2024-yilda SQB banki tomonidan "Yashil ish o'rinlari" va "Tadbirkorga ko'mak" nomli kredit mahsulotlari ishga tushirilgani, yangi ish o'rinlari yaratish, ekologik tamoyillarga rioya qilish va energiya samaradorligini oshirishga xizmat qilishi e'lon qilindi. Ushbu moliyaviy instrumentlar korxonalarining ekologik innovatsiyalarni joriy etishga, chiqindilar hajmini kamaytirishga va yashil texnologiyalarni kengaytirishga investitsiya jalb qilish imkoniyatlarini oshiradi.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston yoshlari uchun yashil iqtisodiyot va ekologik ta'lim yangi imkoniyatlar manbai bo'lib xizmat qilmoqda. Milliy va xalqaro siyosat, ta'lim strategiyalari hamda amaliy dasturlar yoshlarni ekologik bilimlar, ko'nikmalar va innovatsion fikrlash bilan ta'minlashga yo'naltirilgan. Bu esa o'z navbatida mamlakatda yashil bandlikni kengaytirish, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, ekologik xavfsizlikni mustahkamlash va global barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda muhim omil bo'lib qoladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, ekologik ta'limni kengaytirish va yashil iqtisodiyotga o'tish O'zbekiston yoshlari uchun yangi bandlik imkoniyatlarini yaratmoqda. Olingan ma'lumotlar asosida quyidagi xulosalar va tavsiyalar beriladi.

Yoshlarni tayyorlash muhim. Ishlab chiqarish hamda energetika tarmoqlarida yashil texnologiyalarni joriy etish bilan birga, ushbu sohalarda ishlash uchun malakali kadrlarni tayyorlash zarur. Bio-muhandislik, nano-texnologiya va yashil energetika kabi yo'nalishlarda yangi mutaxassisliklar ochilib, yoshlarni ushbu sohaga jalb qilish lozim.

Ekologik ta'limni kengaytirish. Maktablar va oliy ta'lim muassasalarida ekologiya hamda qayta tiklanuvchi energiya bo'yicha kurslar joriy etilishi kerak. O'qituvchilarning malakasini oshirish, maktab o'quv dasturlarida atrof-muhit va barqaror rivojlanish mavzulariga ko'proq o'rin berish zarur. Shu bilan birga, "yashil texnologiyalar" bo'yicha kasbiy ta'lim dasturlarini yaratib, kasb-hunar kollejlari maxsus o'quv markazlarini tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Hamkorlik va investitsiyalar. Davlat muassasalari, biznes va ilmiy tashkilotlar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish lozim. Yashil texnologiyalarni joriy etish uchun kreditlar va subsidiyalarni kengaytirish, yoshlarning ekologik startup loyihalarini qo'llab-quvvatlash muhimdir. Masalan, banklar va moliyaviy tashkilotlar yashil kreditlarni jalb qilib, ijtimoiy mas'uliyat hamda ESG prinsiplari orqali ushbu sohani rivojlantirishi mumkin.

Ekologik madaniyat va tashabbuskorlik. Yoshlarning ekologik faoliyatini rag'batlantirish maqsadida turli tanlovlar, ekofestivallar va "yashil elchilar" tarmog'i kabi loyihalarni tashkil etish foydali. Maktab va kollejar



fanlararo loyihalar orqali ekologiya mavzularini o'rgatib, ota-onalar hamda jamoatchilikni ham ushbu jarayonga jalb etish ekologik ongini mustahkamlaydi.

Monitoring va statistika yaratish. Yashil ish o'rinlari va ushbu sohadagi bandlikka oid statistik tizimni joriy etish zarur. Yashil iqtisodiyot hamda ekologik ta'limga oid ko'rsatkichlar bo'yicha axborotni tizimli tarzda yig'ish va tahlil qilish, ijtimoiy inklyuziya masalalarini ham hisobga olgan holda siyosatlarni takomillashtirish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, ekologik ta'lim va yashil iqtisodiyot yo'nalishida yoshlarga investitsiya kiritish mam-lakatning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining muhim omili hisoblanadi. Mazkur sohadagi tashabbuslarni davom ettirish va yanada kengaytirish orqali O'zbekiston yoshlari atrof-muhit muhofazasi hamda iqtisodiy inno-vatsiyalarda yetakchi rolga ega bo'lishlari ta'minlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Razzakova, M.A. (2025). Ekologiya va ta'lim: barqaror rivojlanish sari yo'l. "Global Environmental Problems, Desertification, and Food Security" xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari, Toshkent, 43–44.
2. Bolcárová, P. & Kološta, S. (2015). Assessment of sustainable development in the EU 27 using aggregated SD index. *Ecological Indicators*, 48, 699–705.
3. Cubas-Díaz, M. & Martínez-Sedano, M.A. (2018). Measures for sustainable investment decisions and business strategy – A triple bottom line approach. *Business Strategy and the Environment*, 27(1), 16–38.
4. Lemke, C. (2021). Measuring and assessing contributions to sustainable development. In: *Accounting and Statistical Analyses for Sustainable Development*. Sustainable Management, Gabler (pp. 41–62). Springer, Wiesbaden.
5. Waas, T., Hugé, J., Block, T., Wright, T., Benitez-Capistros, F. & Verbruggen, A. (2014). Sustainability assessment and indicators: Tools in a decision-making strategy for sustainable development. *Sustainability*, 6(9), 5512–5534.
6. Churchill, A. (Ed.) (2020). *Moving from the Millennium to the Sustainable Development Goals*. Palgrave Macmillan, Singapore, pp. 2–8.
7. Bermejo, R. (2014). Sustainability of Social-Economic Systems. In: *Handbook for a Sustainable Economy*. Springer, Dordrecht, pp. 85–97.
8. Garbie, I. (2016). Assessments of Economic Sustainability. In: *Sustainability in Manufacturing Enterprises*. Springer, Cham, pp. 91–99.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti (2024). PF-37-sonli qarori. "O'zbekiston–2030: Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili" Davlat dasturini amalga oshirish to'g'risida. Tashkent.
10. BMT Taraqqiyot Dasturi (UNDP) (2025). "Yoshlar va iqlim: O'zbekistonda muhim yangi loyiha ishga tushirildi", matbuot xabari, 4 iyun 2025.
11. UNESCO (2022). UNESCO ekologik ta'lim strategiyasi. Paris.
12. International Labour Organization (ILO) (2008). *Green jobs: Towards decent work in a sustainable, low-carbon world*. Geneva.
13. *Transforming our world: the 2030 Agenda for Sustainable Development* (2015). BMT qarori 70/1, New York.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100